O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI TO'PLAMI



21.05.2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Global va milliy iqtisodiyotning asosiy muammolari va rivojlanish yo‘nalishlari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024-yil 21-may

II qism

SAMARQAND-2024

UO‘K: 330.5(575.1)
A80
KBK: 65.05O‘z

Global va milliy iqtisodiyotning asosiy muammolari va rivojlanish yo‘nalishlari // xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024-yil 21-may. Samarqand, SamISI, 2024. – 275 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
Z.S.Artikov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
G.M.Shadiyeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
B.A.Abdukarimov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
T.S.Sharipov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.O.Quvandiqov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Sh.A.Sultonov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
R.J.Qurbonova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
U.N.Nurmorodov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Abdullayeva – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
B.O.Do‘stmatov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
A.P.Xazratov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
L.U.Maxmudov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
N.B.Ruziyeva – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
A.A.Bektemirov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

Sahifalovchilar:
M.E.Erdonov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
Sh.N.Mirzayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
S.B.Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
A.I.Asrorov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
V.A.Fozilov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida global va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish metodologiyasi va muammosi, globallashuv va xalqaro raqamli integratsiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosida yangi ish o‘rinlarini tashlik etish, aholi bandligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish yo‘llari, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda bugalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirish,

2. Юрий Бутов, Михаил Иванов "E-Commerce and Cross-Border Trade: A Practical Guide".: Moscow, Russia. – 2020.

3. Рахимов З. К. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА КОРХОНА ФАОЛИЯТИНИ ИННОВАЦИОН ТАШКИЛ ЭТИШ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 578-585.

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA OILA XO‘JALIGI FAROVONLIGINING MAZMUNI, UNI YUKSALTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI HAMDA BAHOLASH MEZONLARI

Iskandarov Sunnatillo Baxriddin o‘g‘li
SamISI Real iqtisodiyot kafedrasi assisenti

Annotasiya: *Maqolada chet el va mamlakatimizda oila tadbirkorligini tashkil etish,uni davlat tomonidan tartibga solish, rag’balantirish usullari va mexanizmlari tahlil qilindi. Oila tadbirkorligi salohiyatining mazmun – mohiyati ochib berildi va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qo’shadigan hissasini ko’paytirish yo’llari taklif etildi*

Kalit so‘zlar: *oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishsizlik, bandlik, daromad, jismoniy va yuridik shaxs.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi xalqning farovonligiga qaratilgan. Bu bevosita oila xo‘jaliklari farovonligida namoyon bo‘ladi. Ammo mamlakatimizda mustaqillik yillarida oila xo‘jaligi farovonligini nazariy jihatdan kam tadqiq qilinganligini, uning ta’rifi mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ishlanmaganligini inobatga olib, bu borada tadqiqotlar o‘tkazish lozimligini e’tirof etamiz.

Oila xo‘jaligi farovonligi borasida gap ketganda, umuman farovonlik tushunchasini va undan farqli o‘laroq, oila xo‘jaligi farovonligi tushunchalarini farqlamoq lozim, deb hisoblaymiz. Shu tufayli, oldin, farovonlik tushunchasining nazariy talqinini aniqlab olish darkor.

Olimlarimizning oxirgi 10-15 yilda nashr qilgan asarlarida[1] farovonlik va oila farovonligi tushunchalarining ta’riflariga deyarli to‘xtalmaganlar. Faqat oxirgi yillarda bu masala asta-sekinlik bilan yoritila boshlandi. Birgina misolni keltiramiz. Jumladan, A.O‘lmasov va A.Vaxabovlar: «Farovonlik – bu kishilar iste’mol etadigan hayotiy ne’matlarning miqdori va sifatini, hayot kechirishning umumiy shart-sharoitining qandayligini bildiradi”[2], deb o‘qtiradi. Bunday va shunga

1 Шишкин А.Ф. Экономическая теориуа. Учебник. - М.: Гуманитарный издателский центр ВЛАДОС, 1996, - 34-54 бетлар., O’lmasov A. Oila iqtisodi. - T.: Mehnat, 1998. O‘lmasov A., Vaxabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, T.: Sharq, 2006. Pardaev M.K. Oila iqtisodiyoti va biznesi asoslari. - Samarqand, SamKI, 1997, Pardaev M.K., Shodieva G.M. Loyiha tahlilida oila mulki. - Samarqand, SamKI, Pardaev M.K., Qurbonov Z.N. Oila biznesi va tadbirkorligi. - Samarqand, SamDU, 1999., Berkinov B. Islohotlar negizida oila manfaati // «Mulkdor» xaftanomsi.1998 yil 13 fevral., Xayitov A. Oilasi boy jamiyat - Farovon jamiyat // Savdogar gaz. 1999 yil 12 oktyabr., Vaxobov A., Axmadjonov H. Xonadon va davlat moliyasining o‘zaro munosabatlari.// O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2003 yil 11-12 son. – 54-55 betlar..

O’lmasov A., Vaxabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, T.: Sharq, 2006 - 432 bet.

o‘xshash qarashlar boshqa adabiyotlarda ham paydo bo‘lmoqda. Umuman olganda, farovonlik deganda, aholining yashashi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarning yetarli darajada mavjudligi, insoniy ehtiyojlarning qondirilishi va shu bilan bog‘liq muammolarning hal qilinishiga qaratilgan tadbirlar, aholining, xususan, oilalarning mahsulotlar, xizmatlar va sharoitlar bilan yetarli darajada ta’minlanishi kabi masalalarning hal qilinganligini tushunish lozimligi qayd etilgan. Biz yuqorida keltirilgan ta’rif va xulosalardan kelib chiqib, farovonlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni tavsiya qilmoqdamiz. **Farovonlik deganda, aholining yashashi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar, ya’ni insoniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan mahsulotlar va xizmatlarning miqdori va sifati hamda tegishli sharoitlar bilan yetarli darajada ta’minlanishi tushuniladi.** Farovonlik tushunchasini ifodalash uchun makroiqtisodiyot darajasidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ko‘rsatkichlar tizimida umumlashgan ko‘rsatkichlarni ajratib ifodalash mumkin. Aholi farovonligini ifodalash uchun makro-iqtisodiyot darajadagi umumlashgan ko‘rsatkich sifatida **aholining turmush darajasi** hisoblanadi. Mikro darajada, ya’ni oila xo‘jaligida farovonlikni belgilovchi ko‘rsatkich sifatida esa **har bir oila a’zosining turmush darajasi** olinadi.

Oila xo‘jaligi farovonligi to‘g‘risida gap ketganda iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni ajratish maqsadga muvofiqdir. Aholining iqtisodiy farovonligini o‘lchash borasida A.O‘lmasov va A.Vaxabovlarning “ ... jon boshiga iste’mol etiladigan tovarlar va xizmatlarning maqdori va sifati bo‘lib, ularning bozor qiymati bilan o‘lchanadi”[3] fikriga qo‘shilamiz. Ammo mazkur darslikda ijtimoiy farovonlikka ta’rif berilmagan. Bizning fikrimizcha aholining ijtimoiy farovonligiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **Ijtimoiy farovonlik deyilganda hayot kechirishning naqadar qulayligini ta’minlaydigan aholining xavfsizligini, xotirjamligini, sog‘ligini, savodxonligi kabi ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlash bilan bog‘liq tadbirlar majmuasining mavjudligi tushuniladi.**

Aholining, ya’ni oila xo‘jaliklarining turmush darajasi o‘ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, bu iqtisodchi olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lganlar. Bu muammo hozirgi zamon olimlari tomonidan ham o‘rganilgan va tegishli adabiyotlarda[4] tegishli tarzda yoritilgan. Bu muammoni hal qilish bo‘yicha, ya’ni aholi turmush darajasining ta’rifi xususida

---

3 O’lmasov A., Vaxabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, T.: Sharq, 2006 – 432 bet.

4 Abullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika. O‘quv qo‘llanma. T.: Mehnat, 1998.-181 bet., Abduraxmanov K.X., Zokirova K.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi», 2004.-74 bet., Akramov E.A., Soatov N.M. tahririda. Statistika asoslari. Darslik. T.: O‘qituvchi, 1979.- 385 bet. Гурев В.И. Социалнаya статистика. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2002.- 65 бет., Елисеева И.И. таhририда. Социалнаya статистика. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2002.- 65 бет. Nazarov M.G. tahririda. Kurs sotsialno-ekonomicheskoy statistiki. Учебник. М.: Информ Финстат, , 2000.- 576 бет., Салин В.Н., Шпаковскаya Е.П. Социально-экономическаya статистика. Учебник. М.: Yюрист, 2001.- 339 бет., G’oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. T.: Fan. 2005.- 5 bet. va h.k.

mamlakatimizning yetakchi iqtisodchi olimlari o‘z fikrlarini aytganlar. Ushbu jadvalda ularning ayrimlarini keltiramiz.

Aholi turmush darajasi kategoriyasining ta’rifi bo‘yicha turli olimlarning qarashlari

Mualliflar	**Аҳоли турмуш даражаси категориясининг таърифи бўйича қарашлари**	**Қайси манбада айтилган**
Abdullaev Y.	Aholi turmush darajasi – ijtimoiy-iqtisoiy tushuncha bo’lib, u kishilarning moddiy va ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi.	Makroiqtisodiy statistika. O’quv qo’llanma. T.: Mehnat, 1998.-181 bet.
Abduraxmanov K.X., Zokirova K.X., Toxirova X.T.	Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne’matlar va xizmatlar bilan ta’minlanganlik hamda ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi.	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O’quv qo’llanma. T.: “O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘ar-masi», 2004.-74 bet.
Akramov E.A., Soatov N.M. tahririda	Aholi turmush darajasi – ijtimoiy-iqtisoiy tushuncha bo’lib, u kishilarning moddiy va madaniy maishiy ehtiyojlarining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o’z ichiga oladi.	Statistika asoslari. Darslik. T.: O’qituvchi, 1979.-385 bet.
Gurev V.I.	Turmush darajasi – murakkab kompleksli ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo’lib, aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalaydi.	Основы социальной статистики. Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 1991.-67 бет.
Eliseeva I.I. tahririda	Turmush darajasining zamirida aholining zaruriy moddiy ne’matlar va xizmatlarga bo‘lgan iste’molining yuqori darajada ta’minanishi, hamda turli (ratsional) ste’molning qondirilishi hisoblanadi.	Основы социальной статистики. Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 1991.-67 бет.

Nazarov M.G. tahririda	Aholi turmush darajasi – bu insonlar hayot faoliyatining eng avvalo, real ijtimoiy-iqtisoiy sharoitlar yig‘indisini ifodalovchi murakkab va ko‘p qirrali kategoriya bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi.	Kurs sotsialno-ekonomicheskoy statistiki. Uchebnik. M.: Inform Finstat, YuNITI-DANA, 2000.- 576 bet.
Salin V.N., Shpakovskaya Y.P.	Aholi turmush darajasi – aholini shaxsiy iste’moli qondirilishining moddiy imkoniyatlarini xarakterlaydi. U mehnat sharoiti, aholi daromadlari va xarajatlari darajasi va tuzilmasi, bo‘sh vaqtdan foydalanish, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san’at va boshqalarning rivojlanish darajasi kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.	Социально-экономическая статистика. Учебник. M.: Юристь, 2001.- 339 бет
Sidenko A.V., Matveeva M.V.	Turmush darajasi murakkab iqtisoiy kategoriya bo‘lib, yoxud biror ko‘rsatkichni uning yordamisiz xarakterlash mumkin emas.	Межународная статистика. Учебник. M.: Дело Сервис, 2004.-141 бет.
G‘oyibnazarov B.K.	Aholi turmush darajasi – ijtimoiy-iqtisoiy kategoriya bo‘lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.	Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. T.: Fan. 2005.- 5 bet.

Ko‘rinib turibiki, aholining turmush darajasiga ta’rif berish bo‘yicha olimlarimiz o‘rtasida turli qarashlar mavjud. Ularning ijobiy va salbiy jihatlariga to‘xtalmasdan, bu boradagi o‘z fikrimizni ifodalaymiz. Bizning fikrimizcha, aholining turmush darajasi, birinchi galda, uning iqtisodiy qudrati bilan o‘lchanadi. Ammo ularda ma’naviy qoniqish bo‘lmasa iqtisodiy boylikning chegarasini bilmasligi mumkin, bunday kishilar ruhiyatida moddiy boylik hamisha kamdek tuyulaveradi. Shu tufayli aholining turmush darajasini belgilashda nafaqat iqtisodiy, balki intellektual imkoniyatining ham yetarliligini inobatga olish lozimdir. Ushbu talabdan kelib chiqib, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Aholining turmush darajasi deganda, kishilarning iqtisodiy va intellektual imkoniyatlari ularning moddiy, maishiy, ma’naviy va ma’rifiy ehtiyojlarini muttasil qondirib borilishini ifoda etuvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya va ko‘rsatkichlar majmui tushuniladi.

Bu ta’rifning yuqorida keltirilgan boshqa ta’riflarga nisbatan afzalligi, bizning fikrimizcha, kishilarning iqtisoiy va intellektual imkoniyatlarini hisobga olish bilan belgilanadi. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida har bir kishi yoki oila o‘zlarining ehtiyojlarini o‘zlari qondirishlari lozim. Bu esa, ularning iqtisodiy imkoniyatlariga bog‘liq. Iqtisodiy imkoniyatlar esa, ularning intellektual salohiyati bilan hamohangdir. Masalan,kishilarning ma’naviy va ma’rifiy ehtiyojini faqat iqtisodiy imkoniyatlar bilan qondirib bo‘lmaydi. Unda albatta intellektual imkoniyatlar ham yetarli bo‘lmog‘i lozim.

Asosiy adabiyotlar

1. Pardaev M.Q., Pardaev Olim, Pardaeva Ozoda O‘zini o‘zi band qilish yo‘llari. Ilmiy tavsiya. Samarqand, SamISI, 2020. – 72 bet.
2. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Darslik. – T.:O‘zbekiston, 1999. - 58-71 betlar.
3. Shodmonov Sh., Jo‘raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma’ruzalar matni. T.: 2000. - 84-87, 245-254 betlar.
4. Петровцы М.М. Эффективность деятельности предприятий-природопользователей (по материалам предприятий Закарпатской области): автореф. дис…канд. экон. наук: 08.06.01. Ужгород, 2004. 20 с.
5. Shadiyeva, G. (2022). The Role of Family Business in the Development of the Service Industry. American Journal of Economics and Business Management, 5(9), 213-218

БЛОКЧЕЙН И ЕГО ПОТЕНЦИАЛ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ

З.К.Рахимов и.о. доцента, PhD кафедры «Менеджмент» СамИЭС

Аннотация: Мақолада блокчейн технологиялари ва унинг электрон тижоратдаги ўрни ҳақида назарий ва амалий жиҳатдан ёритилган. Маълумотлар муаллиф кузатувлари ва адабиётлар таҳлили асосида тузилди.

Калит сўзлар: Блокчейн, электрон тижрат, IT, технология, виртуал олам, электрон бизнес, халқаро электрон бозор, электрон товар ва хизматлар, рақамли стратегия, рақамли технология.

Аннотация: В статье представлены теоретические и практические аспекты блокчейн технологий и его потенциале в электронной коммерции. Данные были собраны на основе наблюдений автора и анализа литературы.

Ключевые слова: Блокчейн, электронная коммерция, ИТ, технологии, виртуальный мир, электронный бизнес, международный электронный рынок, электронные товары и услуги, цифровая стратегия, цифровые технологии.

Annotation: The article presents theoretical and practical aspects of blockchain technology and its potential in e-commerce. Data were collected based on the author's observations and literature review.

T/r	Mualliflar	Maqola va tezis mavzusi	
I SHO‘BA. GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK YONDASHUVLARI			
1	Горностаева Жанна Рубан Ангелина	НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ СОТРУДНИКОВ: VR/AR СИМУЛЯЦИИ	3
2	Kurbonov Jamshed	DETERMINATION OF DIELECTRIC PROPERTIES OF FOOD PRODUCTS	5
3	А.Бектемиров А.А.Абдураҳмонов	Хорижий инвестицияларни жалб этишда инвестицион муҳит жозибадорлигини ошириш	10
4	Курбанова Рахима Курбонов Жамшед	Эркин иқтисодий ҳудудларини инновацион ҳолатини оширишнинг асосий йўллари	14
5	A.A.Bektemirov, K.G‘.Erkinova	Global barqaror rivojlanish falsafasi	17
6	Kurbanova Rakhima Kurbanov Jamshed	Innovation stimulates the formation of a synergistic "effect" in the enterprise.	19
7	З.К.Рахимов	Туризм как источник дохода для стран-направлений	23
8	MUSINOV DILSHOD	The use of social, information and communication technologies in service industries	25
9	MIRZAYEVA SHIRIN	The mission of social technologies in improving the efficiency of the service sector: pros and cons	28
10	З.К.Рахимов	Кроссбордерная электронная коммерция	32
11	Iskandarov Sunnatillo	Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda oila xo‘jaligi farovonligining mazmuni, uni yuksaltirishning nazariy va amaliy muammolari hamda baholash mezonlari	35
12	З.К.Рахимов	Блокчейн и его потенциал в электронной коммерции	39
13	*Sharipov Sardor*	Global va milliy iqtisodiyotning raqobatbardosh ustunlik manbalarini tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslari	42
14	D.K.Ochilova Jabborova Dilsuz	Migratsiya va qochoqlar muammosi	47
15	*Абдураимов Д.М*	*Мамлакатда туризм соҳасининг инновацион рақобатбардошлигини ошириш йўллари*	51



ISBN: 978-9910-720-29-1